VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN HUQUQBUZARLIKLAR SODIR ETILISHIDA OILAVIY OMILLAR VA OILA TUZILMASINING TA'SIRI

Nazarova Ra'no Sidiq qizi
"Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti
ranonazarova741@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.7709125

Annotatsiya. Ushbu maqolada voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olishda oilaviy muhit va oila tuzilishining ta'siri yoritib berilgan. Bolalar huquqbuzarligiga sabab bo'luvchi omillardan biri sifatida oilaviy mojarolar, oila tuzilishi va noto'liq oilalarda huquqbuzarliklarni oldini olish modellari keltirilgan.

Tayanch so'zlar: voyaga yetmaganlar, huquqbuzarlik, ota-ona nazorati, xavf omillari, noto'liq oila va voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi.

THE EFFECT OF FAMILY FACTORS AND FAMILY STRUCTURE ON JUVENILE DELINQUENCY

Annotation. This article highlights the influence of family factors and family structure in the prevention of juvenile delinquency. Family conflicts, family structure and models of prevention of crimes in single-parent families have provided as one of the factors causing children's delinquency.

Key words: juvenile, delinquency, parental control, risk factors, dysfunctional family, single-parent family, juvenile delinquency.

Jinoyatlarning, huquqbuzarliklarning oqibatlari bilan emas, ulani keltirib chiqaruvchi sabablar bilan ishlash, keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash, ularni bartaraf etish jahondagi ko'plab davlatlarning asosiy dasturiy vazifalaridan biridir. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi masalasi juda ko'p soha mutaxassislarining e'tiborini jalb qilib keladi. Biror hududda yoshi kattalar tomonidan sodir etilgan og'ir jinoyatlarning asosi o'rganilganida, bolalik davrida deviant xulqni shakllantirgan bir nechta omillarning ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Bolalar xatti-harakatlarining asosiy poydevori ular hayotining dastlabki 5 yilida shakllanadi. Ushbu davrda bolaga oilaning beqiyos ta'sirini inobatga olib, huquqbuzarliklarning oldini olishni oilaviy muammolarni hal etish, bola taqdirini e'tiborsiz qoldirmaslikka chaqirish, o'zaro ijobiy hissiy munosabatlarni mustaxkamlash kabi vazifalardan boshlash voyaga yetmaganlarni huquqbuzarliklar sodir etishdan saqlab qoladi.

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi bo'yicha faoliyat individual bola, bolaning oilasi, bolaning tengdoshlari guruhi, bolaning maktabi, bolaning mahallasi va

ommaviy axborot vositalari yo'nalishida olib boriladi. Xavf omillari keng tarqalgan bo'lsa-da, ularning kombinatsiyasi bo'yicha aniq bir namuna mavjud emas, ya'ni, huquqbuzar xulqi aksariyat hollarda bir nechta omillar birgalikda ta'sir etganda shakllanib boradi va turli bolalarda turlicha namoyon bo'ladi. Ba'zi mutaxassislar huquqbuzarlik xavfi shaxsiy omillar (masalan, tug'ilishning asoratlari, giperaktivlik, sezuvchanlik, temperamental qiyinchiliklar) va oilaviy omillar (masalan, ota-onalarning g'ayriijtimoiy yoki jinoiy xatti-harakatlari, giyohvand moddalar iste'mol qilish, bolalarni tarbiyasiga befarqlik)dan kelib chiqadi deb hisoblashadi.

Voyaga yetmaganlarda huquqbuzarlik xavfi omillari quyidagicha tasniflanadi:

•Individual omillar: dastlabki g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar, kognitiv rivojlanishning yomonligi, past intellekt, giperaktivlik va hokazo.

•Oilaviy omillar: ota-ona tarbiyasi, o'zaro sovuq muomala, oilaviy zo'ravonlik, ajralish, ota-onaning psixopatologiyasi, oilaviy g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar, o'smirlik davrida ota-onalik, oila tuzilishi, giperparvarish va hokazo.

•Tengdoshlar omillari: deviant xulqli tengdoshlar bilan aloqa qilish, o'rtoqlari tomonidan rad etilish.

•Maktab va jamoat omillari: maktabga bog'lanmaslik, o'quv faoliyatining yomonligi, akademik intilishlarning pastligi, moddiy muhtojlik, uyushmagan qo'shnichilik, yashash hududidagi noqulayliklar va hokazo[13].

Ota-ona tarbiyasi. Ota-onalarni tarbiyalash bolalar huquqbuzarligini oldini olishning eng samarali amaliyotlaridan biridir. Tarbiyaviy buzilishlar asosan 3 holatda ko'zga tashlanadi: ota-onalar va farzand o'rtasidagi yuqori ziddiyat darajasi, sust nazorat, birgalikdagi ijobiy mashg'ulotlarning mavjud emasligi. Nazoratning sustligi va jazolashning haddan oshiq qo'llanilishi o'g'il bolalarda 7-13 yoshda huquqbuzarlik sodir etish xavfini oshiradi.

Oiladagi zo'ravonlik. Bolalarga nisbatan zo'ravonlik yoki salbiy munosabat boshqa oilaviy xavf omillari kabi huquqbuzarliklarni yuzaga keltiruvchi sabablardan biridir. Jismoniy zo'ravonlik hamda bolalar agressiyasi bo'yicha izlanishlarga ko'ra, zo'ravonlikka uchragan bolalarning 20 foizida voyaga yetgunicha deviant va delikvent xulq-atvor shakllanadi. Shunigdek, er va xotin o'rtasidagi jismoniy zo'ravonlikka guvoh bo'lish ham farzandlar xulq-atvoridagi muammolarni keltirib chiqaradi. Bolaga nisbatan jismoniy zo'ravonlik va oilada ayolga nisbatan zo'ravonlik birga qo'llanilganda, bolada ikki baravar axloqiy buzilish holatini shakllantiradi va onaning ruhiy iztirobi bolalar agressiyasini kuchaytiradi.

Ota-onalar ruhiy holati. Ota-onaning g'ayriijtimoiy xatti-harakatlari, salbiy addiktiv xulqi va depressiya bolalarga nisbatan munosabatlardagi nomuvofiqlik, asabiylashish va nazoratsizlik holatini keltirib chiqaradi. Ota-onaning ruhiy holati

[13] R. Loeber and D.P. Farrington, eds. 2001. Child Delinquents: Development, Intervention, and Service Needs. Thousand Oaks, CA: Sage Publications, Inc. https://sk.sagepub.com/books/child-delinquents.

maktab davridagi bolalarda, xususan, katta yoshdagi bolalarda ko'proq salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Oilaviy g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar. G'ayriijtimoiy xulq-atvorga ega bo'lgan ota-ona shu turdagi oilalar va shaxslar bilan aloqa qilishga moyil bo'ladilar. Bunday ota-onalar farzandlariga ko'proq oilaviy nizolar, ziddiyatlar, ajrimlar va qo'pol muomalani ko'rsatishadi. Shuningdek, oilada biror farzandning huquqbuzarlikka moyil bo'lishi uning opa-singillari, aka-ukalariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ayniqsa, ular orasidagi yoshning yaqinligi ushbu salbiy ta'sirni kuchaytiradi[14].

Erta nikoh va erta ota-onalik. Ko'pgina hollarda yoshlarning erta oila qurishlari farzand tarbiyasida ota-ona pedagogik qobiliyatsizligi va moddiy qiyinchiliklarni yuzaga keltirish ehtimoli mavjudligi bilan izohlanadi.

Oila tuzilishi va ajrim holati. Hayotdagi ko'plab o'zgarishlar bilan birga ota-onaning ajralishi voyaga yetmaganlar uchun keskin inqirozli holatdir. Bu boladagi stress holatining yuzaga kelishi va buning oqibatida ta'limdan so'nish, o'z-o'ziga ishonchi pasayishi, munosabatlardan qo'rqish, tajovvuzkorlik kabilar bilan izohlanadi. G'arb davlatlarida turmush o'rtog'i bilan birga yashovchi va yolg'iz ayollar farzandlari solishtirilganda, yolg'iz ona bilan ulg'ayayotgan bolada huquqbuzarlikka moyillik nisbatan ko'proq kuzatilgan. Mutaxassislar buning sababini yolg'iz ayollarning ruhiy tushkunlikka ko'proq tushishlari, emotsional beqarorligi, mehnat bozorida duch kelishi mumkin bo'lgan muammolar, moddiy beqarorlik, bolani nazorat qilish bilan bog'liq muammolarni keltirib o'tishadi va ko'proq oiladagi o'g'il bolalarda salbiy ta'sir kuzatilganini ta'kidlashadi. Shuningdek, yolg'iz ota yoki ona bilan yashayotgan bolada spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, giyohvand moddalarni qabul qilish to'liq oila farzandlariga qaraganda ko'proq sodir etiladi. Yolg'iz ota yoki ona oilasida farzandlarni nazorat qilish, ular bilan muloqot qilish va qo'llab-quvvatlash kamroq sodir bo'lishi bolaning huquqbuzarlik sodir etishi ehtimolini oshirishi mumkin[15]. Yolg'iz tarbiya nafaqat voyaga yetmaganning huquqbuzarlik ehtimoliga, balki uning aqliy, hissiy va psixologik rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Yolg'iz ota yoki onalar uyda ham ota-ham ona bo'lish bilan band bo'lishi mumkin, ammo ularning aksariyatiga bola bilan to'laqonli munosabatlarni o'rnatish uchun vaqt yetishmaydi. Hissiy munosabatlardan qoniqmagan bolada ko'proq diqqat-e'tiborda bo'lish istagi kuchayib borishi va u huquqbuzarlikni o'zini namoyish qilish uchun sodir etishi mumkin.

Bundan tashqari, har xil turdagi to'liq bo'lmagan oilalardagi bolalar bilan ta'limga moslashish jarayoni qiyinroq kechadi, ularda aksariyat hollarda uyatchanlik va

[14] Gail A. Wasserman, Kate Keenan, Richard E. Tremblay, John D. Coie, Todd I. Herrenkohl, Rolf Loeber, and David Petechuk. Risk and Protective Factors of Child Delinquency. 2003. https://www.ojp.gov/pdffiles1/ojjdp/193409.pdf.
[15] Amber Smith. The Influence of Family Dynamics in Predicting Juvenile Delinquency. 2021. https://www.proquest.com/openview/78b7f3b8f2bd9e0fa9425b0e00c97cd1/1.pdf?pq-origsite=gscholar&cbl=18750&diss=y

havotirning yuqori darajasi namoyon bo'ladi. Noto'liq oilada o'sish bolaning kelajakdagi hayot imkoniyatlarini havf ostiga qo'yadigan omillarni keltirib chiqarishi mumkin.

Noto'liq oila va yoshlar huquqbuzarligi o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirish uchun bir qator nazariy modellar taklif qilingan.

Birinchidan, ijtimoiy nazorat nazariyasi ota-onalari bilan hissiy bog'liqlik mavjud bo'lmagan, an'anaviy me'yorlarga rioya qilishni rag'batlantiruvchi kuchga ega bo'lmagan, noan'anaviy faoliyat bilan shug'ullanmaydigan va ijtimoiy me'yorlar hurmatga loyiq ekanligiga ishonmaydigan o'smirlar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishini ifodalaydi. Ushbu nazariya bolalarning ota-onalariga bo'lgan munosabati bolalarning jinoiy xatti-harakatlarini ko'rsatish imkoniyatlarini oshirish yoki kamaytirishning muhim omili ekanligini ta'kidladi. Misol uchun, ota-onalari bilan zaifroq yoki kamroq bog'lanish bolalarni kriminogen muhitda ko'proq vaqt o'tkazishga undashi mumkin.

Ikkinchidan, o'z-o'zini nazorat qilish modeli noto'liq oilalar farzandlarining ijobiy natijalari to'liq oilalar kabi samarali bo'lishi mumkin. Ushbu modelga ko'ra, noto'liq oilalar o'zlarining tabiati bo'yicha, ota-yoki onadan birining yo'qligi sababli muvofiqlikni o'rnatishga to'sqinlik qiladigan ijtimoiy muhitdir va shuning uchun bolaning tegishli nazorati va ijtimoiylashuvini ta'minlay olmaydi. Bu kamomad bolaning jinoiy xulq-atvorga aralashish ehtimolini oshiradi. Ota-onalardan biri yo'q bo'lganida bola bilan kuchli bog'lanish darajasini saqlab qolish qiyinligi, yolg'iz ota-onalarning oilani boqish talabi ularning farzandlari bilan vaqt o'tkazishlarini qiyinlashtirib, bolalarning jinoiy harakatlar kabi salbiy illatlarga kirishish imkoniyatlarini oshirishi keltirib o'tiladi.

Uchinchidan, iqtisodiy zo'riqish modelida resurslarning yetishmasligi to'liq bo'lmagan oilalarda o'smirlarning jinoiy xatti-harakatlariga qanday ta'sir qilishi mumkinligiga e'tibor qaratiladi. Masalan, yolg'iz ota yoki onalar bolalarning jinoiy xatti-harakatlar o'rniga ijobiy faoliyatga qaratishga yordam beradigan darsdan tashqari mashg'ulotlar va boshqa imkoniyatlar uchun yetarli resurslarga ega bo'lmasliklari mumkin.

To'rtinchidan, oilaviy inqiroz modeli oila tuzilishining o'ziga emas, balki oilaviy buzilishlar bilan bog'liq jarayonlarga e'tibor qaratadi. Ushbu model oiladagi buzilishlar bolalar farovonligini belgilovchi muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Masalan, oilaviy inqiroz modelida ota-onaning ajralishi yoki nizolashishi bolalarda psixologik iztirob, hissiy norozilik va ijtimoiy keskinlikni keltirib chiqaradi. Bolalarning ota-onalariga nisbatan hissiy noroziligi oilaga bog'lanish darajasini pasaytirishi va bolalarning jinoiy xatti-harakatilarini kuchaytirishi mumkin. Shuningdek, modelda ota-ona o'limini boshdan kechirish tashvish, hissiy iztirob va depressiyani keltirib chiqarishini ta'kidlaydi. Ota-onani yo'qotishning bu hodisasi

odatda bolada hissiy norozilik, araz keltirib chiqarmaydi. Shu sababli bu modelda bolalarning huquqbuzarligi ota-onaning o'limiga javoban emas, balki ajralishiga javoban sodiri etilishini ko'rsatadi. To'liq oilalardagi bolalar yolg'iz ota-ona farzandlariga qaraganda kamroq jinoiy xatti-harakatlarni ko'rsatishi kutiladi, chunki bu bolalar oilalardagi buzilish inqirozini boshdan kechirmaydilar[16]. Ushbu modellar ota yoki onaning tarbiyaviy tajribasi, moddiy ta'minlanganlik darajasi, oila a'zolarining ko'pligi, ta'lim sifatiga ko'ra bolada ijobiy o'zgarishlar bo'lishini istisno etmaydi.

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olish bo'yicha o'tkazilgan 3 hududidagi (Toshkent shahri, Samarqand viloyati, Qashqadaryo viloyati) jami 120 ta respondentlardan (10-11 sinf o'quvchilari) so'rovnomalar olib tahlil qilinganida, ularning aksariyati huquqbuzarlik oilaviy muhitga bo'g'liqligini e'tirof etishgan.


O'quvchilardan olingan so'rovnoma javoblari tahlil qilinganda, "Oilangizdagi o'zaro munosabatlar qanday?" degan savolga o'quvchilarning aksariyat qismi ya'ni 92 foizi "oilamizda o'zaro hurmat, muhabbat va ma'naviy yaqinlik mavjud" degan javob variantini tanlashgan. "O'zaro befarqlik ko'proq, hamma o'zi bilan o'zi ovvora" degan javob variantini tanlagan o'quvchilar 2 foizni, "Ota-onalarimiz harakat qilishadi, lekin biz farzandlar bir-birimizga yaqin emasmiz" degan javob variantini 3 foiz, "javob berishga qiynalaman" javob variantini ya'ni 3 foiz, "muammolar, janjallar ko'p bo'ladi" degan javob variantini birorta o'quvchi tanlamaganligini ko'rishimiz mumkin.

O'quvchilardan ota-onalari haqida o'z munosabatlarini bildirishi uchun javoblarni belgilash so'ralganida, jami 120 nafar respondentdan 92 foizi ota-onasini tartibli, qonunga bo'ysinuvchi odamlar ekanligini; 4 foizi ota-onasi juda band insonligini, farzandlar bilan muloqoti kam ekanligini; 3 nafari ota-onasi doim tushkun kayfiyatda yurishini ta'kidlagan. O'quvchilarning 1 foizi javob variantida keltirilmagan boshqa holatlar mavjudligini belgilagan, ammo aniq keltirib o'tmagan.

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarlik sodir etishiga ta'sir qiluvchi muhit haqida so'ralganda o'quvchilarning 37 foizi oilaviy muhitni, 28 foizi do'stlar, o'rtoqlar jamoasini, 11 foizi internet, kompyuter o'yinlari olami, 9 foizi iqtisodiy ya'ni pul bilan bog'liq muammolar, 5 foizi maktabdagi hodimlar jamoasi, 1 foizi sarhush qiluvchi moddalar, 9 foizi boshqalar degan javob variantini belgilashgan[17] (1-rasm).

[16] Janique Kroese, Wim Bernasco, Aart C.Liefbroer, Jan Rouwendal. Growing up in single-parent families and the criminalinvolvement of adolescents: a systematic review. 2021. https://www.tandfonline.com/doi/epdf/10.1080/1068316X.2020.1774589?needAccess=true&role=button.

[17] Nazarova R. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining profilaktikasida oilaning o'rni. International Conference on Innovative Development of Education 2022/13. Page 64-70. http://erus.uz/index.php/cf/issue/current.



1-rasm. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliga ta'sir etuvchi omillar

Qiyin vaziyatlar, murakkab hodisalarga har bir inson duch kelishi mumkin. Aynan shunday vaziyatlarda o'smirlar kimga murojaat qilishini o'rganishga oid berilgan savolga ularning aksariyati ya'ni 58 foizi ota-onasini; 14 foizi do'stlariga; 12 foizi oila a'zolariga (aka, opa, uka, singil, buvi, buva); 12 foizi hech kimga; 1 foizi ustoziga; 1 foizi inspektor psixologga; 1 foizi "boshqalar" variantini; 1 foizi ularning hayotida qiyin vaziyatlar bo'lmasligini belgilashgan. Sinf rahbariga, maktab psixologiga, ijtimoiy ish hodimiga va mahalla hodimlariga murojaat qilish variantini birorta bola belgilamagan (2-rasm).



2-rasm. Bolalar qiyin vaziyatlarda murojaat qiluvchi shaxslar

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olishda oilaning o’rni beqiyosdir. Ota-onaning pedagogik o’quvi, oiladagi iliq o’zaro do’stona muhit, oila a’zolarining hissiy yaqinligi, ijobiy faoliyat bilan mashg’ul bo’lish voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini oluvchi muhim omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Amber Smith. The Influence of Family Dynamics in Predicting Juvenile Delinquency. 2021.

2. Gail A. Wasserman, Kate Keenan, Richard E. Tremblay, John D. Coie, Todd I. Herrenkohl, Rolf Loeber, and David Petechuk. Risk and Protective Factors of Child Delinquency. 2003.

3. Janique Kroese, Wim Bernasco, Aart C.Liefbroer, Jan Rouwendal. Growing up in single-parent families and the criminalinvolvement of adolescents: a systematic review. 2021.

4. Nazarova R. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining profilaktikasida oilaning o’rni. International Conference on Innovative Development of Education 2022/13. Page 64-70.

5. R. Loeber and D.P. Farrington, eds. 2001. Child Delinquents: Development, Intervention, and Service Needs. Thousand Oaks, CA: Sage Publications.